8-sinf Odam va uning salomatligi fanidan imtihon javoblari

1- bilet

1. Gipofiz bezi garmonlari va ularning organizmga ta’siri nimalardan iborat?

Gipofiz bezi no'xatsimon, massasi 0,5---0,6 g ga teng bo'lib, bosh miyaning ostki sohasida, kalla suyagining turk egarchasi deb atalgan qismida joylashgan. Gipofiz uch bo'lakdan iborat: oldingi, oraliq va orqa bo'laklar. Gipofizning oldingi bo'lagidan somatotrop va boshqa xil gormonlar ajraladi. Bu gormon bolalar va o'smirlarning o'sishini, rivojlanishini, organizmda oqsillar sintezlanishini boshqaradi. Ba'zi sabablarga ko'ra, bolalar va o'smirlarda bu gormon ko'p ishlab chiqarilsa, bo'y me'yoridan ortiq o'sib ketadi. Bu holatga gigantizm, bunday odam esa gigant deb ataladi. Agar bu gormon kamroq ishlab chiqarilsa, bo'y o'sishi sekinlashadi, bunday holga nanizm deyiladi Bunday bo'yi past odam gipofizar pakana deyiladi. Ularning bo'yi past bo'lsa ham aqliy faoliyati normal bo'ladi. Bo'y o'sishi to'xtagan katta odamlarda somatotrop gormoni ko'p ishlab chiqarilsa, akromegaliya kasalligi sodir bo'ladi. Bunda odamning burni, labi, iyagi, tili, qo'l va oyoq panjalarining hajmi kattalashadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, gipofiz organizmdagi barcha ichki sekretsiya bezlarining ishini tartibga soluvchi hukmron bez bo'lishi bilan birga, uning funksiyasi markaziy nerv tizimi tomonidan, ya'ni oraliq miyada joylashgan giðotalamusdan ajraladigan neyrogormonlar orqali boshqariladi.

2. Epiteliy to‘qimasining mikropreparatini mikroskopda kuzatish va uni jadval yoki rasmdagi epiteliy to‘qimasi bilan taqqoslash.

Zarur asbob va jihozlar: mikroskop, epiteliy, nerv to'qimasining tayyor doimiy mikropreparati, shu to'qimalarga tegishli rasmlar.

Ishni bajarish tartibi:

1. Mikroskop ish holatiga keltiriladi.
2. Epiteliy to'qimasining mikropreparati mikroskopda ko'riladi va jadval yoki rasmda tasvirlangan epiteliy to'qima bilan taqqoslanadi.

2- bilet

1. Buyrakda siydik hosil bo‘lish jarayonini tushuntirib bering.

Buyrakda siydik hosil bo'lishi. Buyrakda siydik hosil bo'lishi ikki faza (davr)ga bo'linadi. Birinchi davr --- filtratsiya davri, u birlamchi siydik hosil bo'lishidan iborat. Bunda nefronlardagi arteriya kapillarlari orqali qonning suyuq qismi filtrlanib, nefron bo'shlig'iga (kapsulaga) o'tadi. Bu jarayonning o'tishi kapillarlardagi bosimning yuqori, kapsuladagi bosimning past bo'lishiga bog'liq. Birlamchi siydikning tarkibi qon plazmasining tarkibiga yaqin. Unda faqat oqsil bo'lmaydi. Chunki u kapillar qon tomirlarining devoridan filtrlanib o'tmaydi. Kapsuladagi birlamchi siydik kalavasimon kanalchalarga o'tadi. Bu kanalchalarning devori orqali birlamchi siydik tarkibidagi qand va aminokislotalar, suv va mineral tuzlarning ko'p qismi, ya'ni 98,5---99,0% i vena tomirlariga qayta so'riladi. Bunga reabsorbsiya jarayoni deyiladi. Bu siydik hosil bo'lishining ikkinchi davri hisoblanadi. Kanalchalarda qolgan siydik ikkilamchi siydik deyilib, uning tarkibida qoldiq azot, mochevina, kreatinin kabi moddalar, ma'lum miqdorda tuz va suv bo'ladi. Katta odamning buyrak nefronlarida uzluksiz siydik filtrlanishi natijasida bir sutkada o'rtacha 100 litr birlamchi siydik hosil bo'ladi. Uning 98,5---99 litri kalavasimon kanalchalar devori orqali qonga qayta so'riladi, qolgan 1---1,5 litri esa ikkilamchi siydik sifatida tashqariga chiqariladi.

2. Vena qon tomiridan qon ketganda birinchi yordam berish.

Vena qon tomiridan qon ketganda avval u qon tomirini topib bosib turamiz (10-15 minut) Undan keyin ho’l ro’molcha bilan bog’lab qo’yamiz.Qon oqishi to’xtamasa travatolog huzuriga boramiz.

hasanboy.uz

Ushbu imtihon biletining javoblarini to’liq holda olish uchun biz bilan telegram orqali bog’laning.
Telegram nomer: **+998993942820**
Telegram address: **@imtixonga**
Imtihon javoblari **6 MING so'm**
Klikdan yoki paymedan kartaga o'tkazish orqali to'langanda bitta fanning bir sinfi **5 MING so'm**
Klikdan to’lash uchun ushbu kodni terib chaqiruv tugmasini bosing
*****880*3*8600042308966380*summa#
Payme uchun karta raqam: **8600042308966380**
Kara egasi: Xasanboy Rasulov
Paynet orqali to'langanda **6 ming so'm**
Paynet uchun tel raqam: bizga murojaat qilsangiz aytamiz

ILTIMOS To'lov qilganingizdan so'ng **ANIQ QILIB** to'lov qilgan vaqtingizni qancha tushirganizni va nima fan kerakligini yozib yuboring
Masalan: *Bugun 14:43 da 6380 karta raqamiga 6 ming so'm to'ladim 8-sinf ingliz tili kerak*
Iltimos faqat telegram orqali murojaat qiling!

hasanboy